amalga oshirilgan tranzaksiyalar**

mlrd. so'm

Davr	Tranzaksiyalar	
	soni	summasi
1	2	3
2024-yil	47 570 847	917 953,9
Yanvar	3 624 391	58 009,7
Fevral	3 480 202	61 658,4
Mart	3 689 413	63 698,2
Aprel	4 294 175	65 607,0
May	4 504 526	70 583,8
Iyun	3 957 429	69 305,9
Iyul	4 478 809	75 356,7
Avgust	3 784 567	88 970,6
Sentabr	3 670 521	74 855,0
Oktabr	4 028 247	92 741,2
Noyabr	3 978 440	91 854,8
Dekabr	4 080 127	105 312,9
2025-yil	61 261 910	1 389 660,5
Yanvar	4 016 868	86 221,2
Fevral	3 950 983	89 924,7
Mart	4 171 925	96 978,2
Aprel	4 508 557	104 615,8
May	4 863 831	105 128,1
Iyun	5 209 048	116 301,1
Iyul	5 492 045	128 316,7
Avgust	5 452 609	126 665,4
Sentabr	5 536 784	117 400,2
Oktabr	5 901 040	134 297,7
Noyabr	5 700 005	122 372,7
Dekabr	6 458 215	161 438,8

6.4-jadval

**Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, o'rnatilgan
to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni hamda to'lov terminallari
orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi**

Sana	Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi (yil boshidan), mlrd. so'm
1	2	3	4	5
01.01.2024 y.	46 205 950	429 334	26 655	254 719,1
01.02.2024 y.	46 073 524	429 359	28 795	24 844,4
01.03.2024 y.	47 170 732	430 264	26 917	47 554,4
01.04.2024 y.	48 373 747	430 066	26 986	71 642,0
01.05.2024 y.	48 841 077	429 197	27 119	99 334,3
01.06.2024 y.	49 595 204	426 313	27 227	127 016,0
01.07.2024 y.	50 135 263	424 610	27 551	153 222,4
01.08.2024 y.	50 934 084	423 989	27 844	181 894,4
01.09.2024 y.	52 207 891	423 734	28 033	209 358,8
01.10.2024 y.	53 583 382	424 009	28 433	237 480,7
01.11.2024 y.	54 943 130	425 553	29 228	267 125,4
01.12.2024 y.	56 886 445	426 654	29 736	296 419,0
01.01.2025 y.	61 996 419	426 225	29 909	326 735,0
01.02.2025 y.	63 060 072	488 277	30 657	33 343,4
01.03.2025 y.	62 033 647	427 104	32 265	62 885,6
01.04.2025 y.	62 351 457	424 143	33 650	95 439,1
01.05.2025 y.	63 707 130	428 291	34 424	139 981,1
01.06.2025 y.	63 825 850	426 111	35 784	175 696,2
01.07.2025 y.	62 336 814	424 996	36 785	212 204,9
01.08.2025 y.	62 214 596	425 233	36 267	242 649,1
01.09.2025 y.	62 268 334	428 483	37 037	279 033,6
01.10.2025 y.	63 639 505	430 178	38 118	318 179,2
01.11.2025 y.	65 044 604	424 729	39 819	359 931,3
01.12.2025 y.	66 785 499	430 089	39 846	399 499,9
01.01.2026 y.	68 267 436	430 762	40 090	460 259,6

6.5-jadval

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni

Sana	Jami	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar
1	2	3	4
01.01.2024 y.	43 556 096	1 315 895	42 240 201
01.02.2024 y.	42 082 640	1 379 396	40 703 244
01.03.2024 y.	42 596 465	1 392 463	41 204 002
01.04.2024 y.	42 969 892	1 386 348	41 583 544
01.05.2024 y.	44 070 424	1 392 997	42 677 427
01.06.2024 y.	44 698 104	1 385 202	43 312 902
01.07.2024 y.	44 986 321	1 425 249	43 561 072
01.08.2024 y.	45 626 947	1 431 285	44 195 662
01.09.2024 y.	46 699 340	1 436 977	45 262 363
01.10.2024 y.	48 408 877	1 441 740	46 967 137
01.11.2024 y.	49 884 739	1 459 101	48 425 638
01.12.2024 y.	50 891 091	1 467 725	49 423 366
01.01.2025 y.	52 917 166	1 461 719	51 455 447
01.02.2025 y.	57 498 384	1 554 687	55 943 697
01.03.2025 y.	60 083 561	1 555 018	58 528 543
01.04.2025 y.	62 186 659	1 581 751	60 604 908
01.05.2025 y.	63 501 089	1 598 568	61 902 521
01.06.2025 y.	65 716 273	1 621 305	64 094 968
01.07.2025 y.	69 182 598	1 630 364	67 552 234
01.08.2025 y.	70 245 670	1 646 009	68 599 661
01.09.2025 y.	71 541 745	1 655 226	69 886 519
01.10.2025 y.	74 178 175	1 684 431	72 493 744
01.11.2025 y.	76 309 426	1 683 728	74 625 698
01.12.2025 y.	79 333 863	1 694 530	77 639 333
01.01.2026 y.	82 902 522	1 713 165	81 189 357

To'lov tizimlari operatorlarining reestri
(2026-yil 1-yanvar holatiga)

№	Operator nomi	To'lov tizimi nomi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1	2	3	4	5	6	7
1	“Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi” AJ	UZCARD	11.04.2020 y.	1	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 78-uy	www.uzcard.uz
2	“Milliy Banklararo Protsessing Markazi” AJ	HUMO	11.04.2020 y.	2	100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mahtumquli ko'chasi, 178/1-uy	www.humocard.uz
3	“PAYFINTECH” AJ	PAYFINTECH	08.06.2024 y.	4	100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 23-uy	www.payfintech.uz

To'lov tashkilotlarining reestri

(2026-yil 1-yanvar holatiga)

№	To'lov tashkiloti nomi	To'lov tashkilotining tovar belgisi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1	2	3	4	5	6	7
1	“Click” MChJ	Click	28.03.2020 y.	1	100052, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Salar bo'yi ko'chasi, 35A-uy	www.click.uz
2	“BRIO GROUP” MChJ	OSON	28.03.2020 y.	2	100058, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 179-uy	www.oson.uz
3	“INSPIRED” MChJ XK	Payme	04.04.2020 y.	3	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B-uy	www.payme.uz
4	“National Innovative Payment Technologies” MChJ	ATMOS	04.04.2020 y.	4	Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 6/1-uy	www.atmos.uz
5	“FREEDOM PAYMENTS” MChJ QK	Freedom Pay	23.04.2020 y.	5	100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 21A-uy	www.freedompay.money
6	“Maroqand” MChJ	UPAY, Humans Pay	23.04.2020 y.	6	100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, TXAY ko'chasi, 18A-uy	www.upay.uz
7	“Alif Tech” MChJ XK	alif.mobi	23.07.2020 y.	10	100070, Toshkent shahri, Shayhantoxur tumani, O'qchi ko'chasi, 3-uy	www.alifmobi.uz
8	“Plum technologies” MChJ	MyUzcard	10.10.2020 y.	13	100027, Toshkent shahri, Shayhantoxur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 78-uy	www.plumtech.uz
9	“Global solutions” MChJ XK	GlobalPay	10.10.2020 y.	14	100031, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Mirobod-2, 39a-uy	www.globalsolutions.uz
10	“AVTOMATLASHTIRILGAN TRANSPORT TO'LOV TIZIMI OPERATORI” MChJ	ATTO	10.10.2020 y.	15	100019, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sebzor C17/18-dahasi, 52A-uy	www.atto.uz
11	“Mayasoft” MChJ QK	MARTA	10.10.2020 y.	16	100077, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Bo'zbozor 7-tor ko'chasi, 21-uy	www.marta.uz
12	“CHOYKHONA” MChJ	IWON	26.12.2020 y.	19	100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko'chasi, 32A	www.iwon.uz

№	To'lov tashkiloti nomi	To'lov tashkilotining tovar belgisi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1	2	3	4	5	6	7
13	“ZPLAT” MChJ	ZPLAT	26.12.2020 y.	20	100090, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Taras Shevchenko ko'chasi, 21A-uy	www.zplat.uz
14	“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJ	A-pay	09.01.2021 y.	21	100090, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, A.Qahhor 9-tor ko'chasi, 1A-uy	www.a-pay.uz
15	“TEZPAY” MChJ	TEZPAY	27.03.2021 y.	22	140100, Samarqand viloyati, Samarqand shahri, Sattepo maskani, Turkiston ko'chasi, 157-uy	www.tezpay.net
16	“PAYLOAD” MChJ QK		27.03.2021 y.	23	100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Botkina ko'chasi, 8-uy	
17	“MULTICARD PAYMENT” MChJ		12.05.2021 y.	26	100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Sodiq Azimov ko'chasi, 50-uy	www.multicard.uz
18	“PAY-WAY” MChJ		22.05.2021 y.	27	170100, Andijon viloyati, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 2-uy	www.1pay.uz
19	“MULTIPAY” MChJ		21.10.2021 y.	31	100060, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Farg'ona yo'li ko'chasi, 23/3	
20	“O'zbekiston respublikasi tovar-xom ashyo birjasi” AJ		27.11.2021 y.	34	100090, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 77-uy	www.uzex.uz
21	“UZPAYNET” MChJ	Paynet	25.12.2021 y.	35	100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Sh. Rustaveli ko'chasi, 53V-uy	www.paynet.uz
22	“SOLUTIONS LAB” AJ	Uzum Nasiya	29.01.2022 y.	36	100070, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik, 1-tor ko'chasi, 8-uy	www.uzumnasiya.uz
23	“NATIONAL PAY” MChJ	Milliy pay	12.02.2022 y.	38	220803, Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Madir, Ilg'or mahallasi	www.milliypay.uz
24	“CS EXPRESS PAY” MChJ XK		12.02.2022 y.	39	100128, Toshkent shahri, Shayhantoxur tumani, Zulfiyaxonim ko'chasi, 12-uy	www.payze.uz
25	“OCTAGRAM” MChJ	Paylov	10.03.2022 y.	40	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 26-uy	www.karmonpay.uz

№	To'lov tashkiloti nomi	To'lov tashkilotining tovar belgisi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1	2	3	4	5	6	7
26	“SOLIQ SERVIS” DUK		09.06.2022 y.	42	100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Muqimiy ko'chasi, 166-uy	
27	“LIMON PAY” MChJ	LimonPay	16.07.2022 y.	43	100043, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, E-Mavze, 3-uy	
28	“YANGI PAYMENT” MChJ		16.07.2022 y.	44	100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, A.Temur shox ko'chasi, 99-uy	
29	“XONSAROY PAYMENTS” MChJ		13.08.2022 y.	45	100206, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 13-mavze, 72-uy	www.cloudpayments.uz
30	“BEELAB” MChJ		08.09.2022 y.	46	100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buhoro ko'chasi, 1-uy	www.beepul.beeline.uz
31	“MARKETPLACE TRADING” MChJ	Sello	19.11.2022 y.	47	100128, Toshkent shahri, Shayhantoxur tumani, Zulfiyaxonim ko'chasi, 12-uy	www.sello.uz
32	“QUICK PAYMENTS SOLUTION” MChJ	Infinity Pay	24.12.2022 y.	48	100077, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 1-uy	www.quickpay.uz
33	“TAD INDUSTRIES” MChJ	YuzPay	24.12.2022 y.	49	100125, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Baxor MFY, Buz-2 mavzesi, 4-uy	www.tadi.uz
34	“DEVHUB” MChJ	VIA	24.12.2022 y.	50	100093, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Axmad Donish ko'chasi, 28-uy	
35	“RAQAMLI BIZNES AGREGATOR” MChJ	dpay	26.01.2023 y.	51	100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59-uy	www.dpay.uz
36	“CROSS PAY” MChJ		18.02.2023 y.	52	100021, Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 25A-uy	
37	“PARAPAY” MChJ		04.04.2023 y.	53	100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Shivli 1-tor ko'chasi, 16-uy	
38	“SMART MARKETPLACE” MChJ		04.04.2023 y.	54	100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 107B-uy	
39	“FUTURE OPEN TECHNOLOGY GROUP” MChJ		04.04.2023 y.	55	100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 14-uy	

№	To'lov tashkiloti nomi	To'lov tashkilotining tovar belgisi	Litsenziya berilgan sana	Litsenziya raqami	Yuridik manzili	Veb-sayti
1	2	3	4	5	6	7
40	“IT UNISOFT GROUP” MChJ		04.04.2023 y.	56	100021, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 4-uy	
41	“EMIT-SOLUTION” MChJ		04.04.2023 y.	57	100011, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Oltintepa ko'chasi, 159-uy	
42	“ALTAPAY” MChJ		20.05.2023 y.	59	100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Bobur ko'chasi, 34-uy	
43	“O'ZBEKISTON POCHTASI” AJ		08.06.2024 y.	61	100000, Toshkent shahri, Oloy ko'chasi, 1-uy	
44	“OXUS PAY” AJ		28.12.2024 y.	62	100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Afrosiyob ko'chasi, 8A-uy	
45	“HUMO PAY” AJ		29.11.2025 y.	63	100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 178/1-uy	
46	“Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi” muassasasi to'lov tashkiloti.		28.11.2025 y.	359	100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ibrohim Mo'minov ko'chasi, 4-uy	https://egov.uz/

6.8-jadval

Elektron pullar tizimlari reestri

(2026-yil 1-yanvar holatiga)

№	Elektron pullar tizimi nomi	Operator nomi	Emitent nomi	Elektron pullar chiqarish bo'yicha faoliyati boshlangan sana
1	2	3	4	5
1	OSON	“BRIO GROUP” MChJ	“Aloqabank” ATB	11.10.2022 y.
2	E-CARD	“INSPIRED” MChJ	“Universal bank” ATB	21.08.2020 y.
3	CLICK	“CLICK” MChJ	“Agrobank” ATB	06.09.2024 y.
4	alif.mobi	“ALIF TECH” MChJ	“Aloqabank” ATB	02.11.2020 y.
5	A-pay	“CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION” MChJ	“Uzum bank” AJ	12.11.2024 y.
6	GlobalPay	“Global Solutions” MChJ	“Aloqabank” ATB	17.11.2021 y.
7	Apelsin	“Uzum bank” AJ	“Uzum bank” AJ	29.07.2022 y.
8	ExMoney	“O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi” AJ	“Trastbank” XAB	30.08.2022 y.
9	UCOIN	“Universal bank” ATB	“Universal bank” ATB	17.02.2023 y.
10	PAYNET WALLET	“UZPAYNET” MChJ	AT “Xalq banki”	18.07.2023 y.
11	IWON	“CHOYKHONA” MChJ	“Orient Finans” XATB	01.09.2024 y.
12	SELLO COIN	“MARKETPLACE TRADING” MChJ	“Aloqabank” ATB	25.12.2024 y.

VII. “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKINING STATISTIK BYULLETENI” JADVALLARIGA METODOLOGIK SHARHLAR

I bo‘lim. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar

1.1-jadval. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) va uning tarkibi

Mazkur jadval Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqarish usulida hisoblangan.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)– ma‘lum bir davr mobaynidagi mamlakat hududida ishlab chiqarilgan barcha yakuniy tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning monetar qiymati.

1.2-jadval. Iste‘mol narxlari indeksi (INI) dinamikasi

Iste‘mol narxlari indeksi (INI) – aholi tomonidan iste‘mol uchun xarid qilinadigan tovar va xizmatlar umumiy narxlar darajasining o‘zgarish ko‘rsatkichi. INI belgilangan tovar va xizmatlar joriy davrdagi narxlari yig‘indisining oldingi (bazaviy) davrdagi narxlariga nisbati orqali hisoblanadi.

1.3-jadval. Bazaviy inflyatsiya va uning muqobil ko‘rsatkichlari dinamikasi

Bazaviy inflyatsiya – pul-kredit siyosati sohasidagi qarorlarni qabul qilishda muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, iqtisodiyotdagi narxlarning vaqtinchalik o‘zgarishlari ta‘siridan holi bo‘lgan inflyatsiyaning umumiy tendensiyasini ifoda etadigan ko‘rsatkich hisoblanadi.

Bazaviy inflyatsiyani hisoblashda iste‘mol narxlari indeksidan narxlari ma‘muriy tarzda tartibga solinadigan hamda mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan Tovar va xizmatlar narxlari chiqarib tashlash orqali aniqlanadi.

Qisqartirilgan INI – bazaviy inflyatsiyaning yana bir hisoblash usuli bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichni hisoblashda INI savatidan ma‘lum bir belgilangan vaznga ega (INI savate vaznlariga muvofiq) o‘zgarishi eng yuqori va eng kichik qiymatlarga ega bo‘lgan narxlar chiqarib tashlanadi.

Qisqartirilgan INI baholashda INI savatining narxlari eng past oshgan 15 foiz va eng yuqori oshgan 15 foiz (INI savati vaznlariga muvofiq) tovar va xizmatlar hisobga olinmaydi. Qisqartirilgan INI umumiy INI vaznining 70 foizini qamrab olib, undagi tovar va xizmatlar ro‘yxati har oyda o‘zgarib turadi.

INI medianasi – bazaviy inflyatsiyaning yana bir muqobil ko‘rsatkichi bo‘lib, iste‘mol narxlari o‘zgarishining markaziy tendensiyasini ifodalaydi. INI medianasi sifatida umumiy istemol narxlari o‘zgarishi taqsimotining 50-persentiliga mos keladigan narx o‘zgarishi tanlab olinadi.

INI medianasini hisoblashda INI savatidagi tovar va xizmatlar narxlarining o‘zgarishi o‘shish tartibida joylashtiriladi va 50-persentilda joylashgan (INI vaznlari bo‘yicha) tovar yoki xizmat narxlarining o‘zgarishi INI medianasi sifatida tanlab olinadi.

1.4-jadval. Aholi va tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari

Inflyatsion kutilma – aholi va tadbirkorlik subyektlarining kelgusi davr uchun inflyatsiya darajasi to‘g‘risidagi taxminlari. Inflyatsiya kutilmalariga asosanib, ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilar, sotuvchilar va xaridorlar o‘zlarining kelgusidagi investitsiya, kredit, moliyaviy hamda narx siyosatini belgilaydilar, daromadlar, xarajatlar va taxminiy foyda hajmini baholaydilar.

Inflyatsion kutilma O‘zbekiston Respublikasi aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o‘tkaziladigan so‘rovlar orqali aniqlanadi.

1.5-jadval. O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansi

To‘lov balansi – bu ma‘lum bir davr mobaynidagi rezident va norezidentlar o‘rtasidagi iqtisodiy operatsiyalarni jamlanma ko‘rinishda aks ettiruvchi statistik hisobot.

To‘lov balansining tuzilishi Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) “To‘lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiya bo‘yicha qo‘llanma”sining oltinchi nashriga (TBQ 6, 2009 y.) muvofiq yagona xalqaro metodologiya asosida amalga oshiriladi.

Hisob yuritish tizimining negizida har bir operatsiyani ikkiyoqlama yozish (debet va kredit) tamoyili yotadi. To'lov balansining har bir operatsiyasi miqdor jihatdan o'zaro teng va bir-biriga qarama-qarshi (kirim va chiqim operatsiyalarini ifodalovchi) ikkiyoqlama yozuv ko'rinishida aks ettiriladi.

Joriy operatsiyalar hisobi rezidentlar va nerezidentlar o'rtasidagi tovarlar va xizmatlar eksporti va importini, shuningdek birlamchi va ikkilamchi daromadlarni aks ettiradi.

Joriy operatsiyalar hisobi ko'rsatkichlari Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi, tijorat banklari va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lumotlari asosida XVJ standartlariga muvofiq va ekspert baholash orqali hisoblangan.

Tovarlar rezident va nerezident o'rtasida egalik huquqining o'tishi tamoyili asosida, tovarlarning O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi va O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida aks ettiriladi. Bunda import qilingan tovarlar qiymati FOB narxlarda (eksportyor davlat chegarasigacha bo'lgan transport va sug'urta xarajatlari hisobga olingan holdagi tovar qiymati) baholanadi. Shunga muvofiq, nerezidentlardan xizmatlar importi sifatida transport va sug'urta bo'yicha xizmatlar qiymatini alohida aks ettirish maqsadida tovarlar narxlari bo'yicha tuzatishlar amalga oshiriladi.

Xizmatlar hisobot davri mobaynida rezidentlar tomonidan nerezidentlarga va nerezidentlar tomonidan rezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlarni aks ettiradi.

Birlamchi daromadlar nerezidentlarning rezidentlarga to'lagan ish xaqi bo'yicha va investitsion daromadni (masalan, investitsiyalar bo'yicha dividendlarni) o'z ichiga oladi.

Ikkilamchi daromadlar rezidentlar va nerezidentlar o'rtasidagi joriy transfertlarni ko'rsatadi. Transfertlar deganda tovar, xizmat, moliyaviy yoki boshqa aktiv evaziga iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan boshqa ob'ektni olmagan holda taqdim etish bo'yicha operatsiyalar tushuniladi.

Kapital operatsiyalar hisobi rezidentlar va nerezidentlar o'rtasida qabul qilinishi va to'lanishi nazarda tutilgan kapital transfertlarni hamda ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar sotib olinishi va sotilishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga tabiiy resurslar, shartnomalar, iqtisodiy aktiv deb qabul qilinadigan ijara shartnomalari va litsenziyalar, shuningdek marketing aktivlariga bo'lgan huquqlar kiradi. O'z navbatida, kapital transfertlarga kapital aktivlarni o'tkazish, qarzdandagi qarzdan voz kechish va boshqa operatsiyalar kiradi.

Kapital bilan bog'liq operatsiyalar Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi va tijorat banklarining ma'lumotlari asosida hisoblandi.

Moliyaviy hisob O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va nerezidentlari o'rtasidagi moliyaviy aktivlar va majburiyatlar bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirib, ular jumlasiga kreditlarni olish va so'ndirish, qimmatli qog'ozlar savdosi, investitsiya faoliyatini amalga oshirish va boshqalar (savdo kreditlari, sug'urta, pensiya va standart garantiyalar dasturlari, boshqa debitor va kreditor qarzdorlik) kiradi.

Avvalgi hisoblardan farqli o'laroq, moliyaviy hisobda operatsiyalar debet va kredit bo'yicha ikkiyoqlama yozuv tamoyili asosida emas, balki aktiv va majburiyatlarga bo'lingan holda aks ettiriladi.

Moliyaviy hisob bo'yicha operatsiyalar Markaziy bank, Moliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, tijorat banklari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ma'lumotlari asosida XVJ standartlariga muvofiq va ekspert baholash orqali hisoblangan.

Investitsiyalar – foyda olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritilgan mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, boshqa turdagi mulk, shuningdek pul qiymatiga ega bo'lgan mulkdorlik huquqi va boshqa turdagi huquqdir.

Zaxira aktivlar pul-kreditni tartibga soluvchi organlarning nerezidentlarga bo'lgan alohida talablarini o'z ichiga oladi hamda ular chet el valyutasidagi aktiv bo'lishi va haqiqatda mavjud bo'lishi lozim. Zaxira aktivlarda faqatgina yuqori likvidlikka va sifatga ega aktivlar hisobga olinadi.

Sof xatolar va yo'qotishlar – to'lov balansini tuzishda turli xil manbalar ma'lumotlarini birlashtirgan holda to'lov balansini komponentlarini alohida baholash natijasida uning hisoblarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomutanositliklar.

1.6-jadval. O'zbekiston Respublikasining xalqaro investitsiya pozitsiyasi

Xalqaro investitsiya pozitsiyasi muayyan davr boshi va oxiriga aktivlar (rezidentlarning norezidentlarga talablari) va majburiyatlarni (norezidentlarning rezidentlarga talablari) aks ettiradi.

Aktivlar va majburiyatlar to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar, hosila moliyaviy instrumentlar, mamlakat zaxira aktivlari va boshqa investitsiyalardan tashkil topadi.

Aktivlar va majburiyatlar qoldig'ining muayyan davr boshi va oxiridagi mutanosibligi to'lov balansining moliyaviy hisobida aks etgan operatsiyalar hisobiga ta'minlanadi. Bunda valyuta kurslari, aktivlar qiymati va moliyaviy hisobda aks etmagan boshqa operatsiyalar qiymatining o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlar inobatga olinadi.

Xalqaro investitsiya pozitsiyasining tuzilishi XVJning "To'lov balans va xalqaro investitsion pozitsiya bo'yicha qo'llanma"sining oltinchi nashriga (TBQ 6, 2009 y.) muvofiq yagona xalqaro metodologiya asosida amalga oshiriladi.

1.7- jadval. O'zbekiston Respublikasining xalqaro zaxiralari

XVJning "To'lov balans va xalqaro investitsion pozitsiya bo'yicha qo'llanma"sining oltinchi nashri (TBQ 6, 2009 y.) va "Xalqaro rezervlar va chet el valyutasidagi likvidlik. Ma'lumotlarni taqdim etish shakli: asosiy tamoyillar"(2013 y.) xalqaro zaxiralar bo'yicha statistik ma'lumotlarni tayyorlashda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XVJning mazkur uslubiy nashrlariga muvofiq, to'lov balans defitsitini moliyalashtirishdagi ehtiyojlarni qondirish, valyuta almashuv kursiga ta'sir ko'rsatish uchun valyuta bozorlarida intervensiyani amalga oshirish va boshqa shu kabi maqsadlarda (milliy valyuta va iqtisodiyotga bo'lgan ishonchni ta'minlash hamda tashqi qarzlarni uchun asos bo'lib xizmat qilish kabilar) pul-kreditni tartibga soluvchi organlarning erkin tasarrufida bo'lgan va ular tomonidan nazorat qilinadigan tashqi aktivlar xalqaro zaxiralar (zaxira aktivlar) bo'lib hisoblanadi.

Zaxira aktivlar– 1.5-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Zaxira aktivlar monetar oltin, maxsus qarz olish huquqlari (SDR), XVJdagi zaxira pozitsiyasi va chet el valyutasidagi boshqa zaxira aktivlardan tashkil topadi.

Ma'lumotlar hisobot davrining oxirgi kunida amal qilgan Markaziy bank tomonidan o'rnatiladigan chet el valyutalarining rasmiy almashuv kurslari, XVJning rasmiy saytida e'lon qilinadigan SDRning almashuv kursi va London qimmatbaho metallar birjasining oltin bo'yicha ertalabki fiksing narxi asosida million AQSH dollari ekvivalentida taqdim etiladi.

Ma'lumotlarni taqdim etish shaklining "**Qimmatli qog'ozlar**" bo'limida yuqori likvidlikka ega hamda bozorda sotiladigan kapitalda ishtirokni ta'minlovchi va qarz qimmatli qog'ozlar aks ettiriladi. Mazkur bo'limda faqatgina norezidentlar tomonidan chiqarilgan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar hisobga olinadi.

Depozitlar talabga ko'ra ishlatilishi mumkin bo'lgan depozitlarni o'z ichiga oladi. Likvidlik nuqtai nazaridan mazkur depozitlarga odatda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hamda talabga ko'ra yoki juda qisqa muddatda depozitning qiymatiga ta'sir qilmasdan qaytariladigan muddatli depozitlar kiritiladi. Zaxira aktivlar xorijiy markaziy banklar, Xalqaro hisob-kitoblar banki va boshqa norezident banklarda joylashtirilgan depozitlarni o'z ichiga oladi. Zaxira aktivlar tarkibidagi depozitlar bo'yicha ko'rsatkichlarda, qoidaga ko'ra, pul-kreditni tartibga soluvchi organlar tomonidan norezident banklarga berilgan va talabga ko'ra qaytariladigan chet el valyutasidagi qisqa muddatli kreditlar ham hisobga olinadi.

Naqd valyutadagi mablag'lar "Naqd valyuta va depozitlarning jami miqdori" bo'limida aks ettirilib, naqd valyuta to'lovlari amalga oshirishda foydalaniladigan muomaladagi xorijiy davlatlar banknotlari va tangalarini o'z ichiga oladi.

XVJdagi zaxira pozitsiyasi o'zida birinchidan, XVJni xabardor qilish orqali undan olinishi mumkin bo'lgan chet el valyutasi, ya'ni "zaxira transhi"ni, ikkinchidan, XVJga a'zo davlat tomonidan istalgan vaqtda foydalanilishi mumkin bo'lgan, "Umumiy resurslar hisobvarag'ida" aks ettiriluvchi XVJning a'zo davlat oldidagi har qanday qarzдорligini, shu jumladan "Qarzlarni to'g'risida bosh bitim" va "Qarzlarni to'g'risida yangi bitim" doirasida hisobot taqdim etuvchi mamlakat tomonidan XVJga berilgan kreditlarni aks ettiradi. XVJga bo'lgan SDRdagi talablar, o'z navbatida, chet el valyutasidagi talablar bo'lib hisoblanadi.

“Oltin” bo‘limida rasmiy tashkilotlarga tegishli oltin aks ettirilib, u oltin quymalari va oltinni yetkazib berishni talab qilish huquqini beruvchi norezidentlar bilan bo‘lgan oltin hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni o‘z ichiga oladi. Oltin quymalari kamida 995-probaga ega bo‘lgan tanga, quyma yoki bo‘laklar shaklida bo‘ladi va javobgarlik ostida saqlashdagi oltin hisobvaraqlari qoldiqlarini ham o‘z ichiga oladi. Mazkur bo‘limda pul-kreditni tartibga soluvchi organlar tomonidan zaxira aktiv sifatida saqlanadigan oltin hisobga olinadi.

Boshqa zaxira aktivlar zaxira aktivlarning boshqa kategoriyasiga kiritilmagan, pul-kreditni tartibga soluvchi organlar tomonidan erkin ishlatiladigan likvid aktivlarni o‘z ichiga oladi.

Chet el valyutasidagi boshqa aktivlar zaxira aktivlarda hisobga olinmagan pul-kreditni tartibga soluvchi organlarning chet el valyutasidagi likvid aktivlarini o‘z ichiga oladi. Pul-kreditni tartibga soluvchi organlarning rezidentlarga bo‘lgan chet el valyutasidagi talablari chet el valyutasidagi boshqa aktivlarga misol bo‘la oladi.

II bo‘lim. Pul-kredit ko‘rsatkichlari

Mazkur bo‘limdagi Markaziy bank sharhi, Boshqa depozit tashkilotlari (tijorat banklari) sharhi, Depozit tashkilotlari (bank tizimi) sharhi hamda Pul agregatlariga oid ma’lumotlar Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) yangilangan tahrirdagi Pul-kredit va moliyaviy statistikani shakllantirish va yuritish qo‘llanmasida (2016 y.) belgilangan tushunchalar, shakllar va tasniflardan foydalangan holda standart hisobot shakllari asosida shakllantiriladi.

2.1-jadval. Markaziy bank sharhi

Markaziy bank sharhi Markaziy bankning buxgalteriya balansi hisoboti asosida oylik ravishda shakllantiriladi. Markaziy bank sharhi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

Sof tashqi aktivlar - Markaziy bankning jami tashqi aktivlari (norezidentlarga bo‘lgan talablari va monetar oltin) hamda Markaziy bankning jami tashqi majburiyatlari (norezidentlar oldidagi majburiyatlari) orasidagi farqni ifodalaydi.

Monetar oltin – Markaziy bank tomonidan zaxira aktiv sifatida saqlanadigan xalqaro standartlarga mos keluvchi oltin.

Norezidentlarga bo‘lgan talablar – Markaziy bank kassasidagi naqd chet el valyuta, norezident banklarda ochilgan vakillik va depozit hisob varaqlaridagi mablag‘lar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek XVJdagi maxsus qarz olish huquqlari va zaxira pozitsiyasi aks ettiriladi.

Norezidentlar oldidagi majburiyatlar – Markaziy bank tomonidan norezidentlardan jalb qilingan depozitlar va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek XVJ tomonidan taqsimlab berilgan maxsus qarz olish huquqlarini ifodalaydi.

Boshqa depozit tashkilotlarga bo‘lgan talablar – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ajratilgan kreditlar hamda mazkur tashkilotlarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag‘lar aks ettiriladi.

Markaziy hukumatga bo‘lgan sof talablar – Markaziy bankning Markaziy hukumatga bo‘lgan talablari hamda majburiyatlari orasidagi farqni aks ettiradi.

Markaziy hukumatga bo‘lgan talablar – Markaziy hukumat tomonidan chiqarilgan Markaziy bank tasarrufidagi qimmatli qog‘ozlarni ifodalaydi.

Markaziy hukumat oldidagi majburiyatlar – Markaziy hukumatning Markaziy bankdagi depozit hisobvaraqlaridagi mablag‘lar hamda ularga hisoblangan foizlar aks ettiriladi.

Boshqa sektorlarga bo‘lgan talablar – Markaziy bankning boshqa moliyaviy tashkilotlarga, mahalliy davlat tashkilotlariga, nomoliyaviy davlat tashkilotlariga hamda xususiy sektorga bo‘lgan talablarini o‘z ichiga oladi.

Boshqa moliyaviy tashkilotlarga bo‘lgan talablar – Markaziy bank tomonidan boshqa moliyaviy tashkilotlarga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo‘nak (avans) to‘lovlari, boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan chiqarilgan hamda Markaziy bank tasarrufidagi qimmatli qog‘ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Mahalliy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – Markaziy bank tomonidan mahalliy davlat tashkilotlariga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – Markaziy bank tomonidan nomoliyaviy davlat tashkilotlariga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, shuningdek Markaziy bank tasarrufidagi korxona va tashkilotlarga kiritilgan investitsiya mablag'lari aks ettiriladi.

Xususiy sektorga bo'lgan talablar – Markaziy bank tomonidan xususiy sektorga (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, xususiy sektor tomonidan chiqarilgan hamda Markaziy bank tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Pul bazasi – Markaziy bankdan tashqaridagi naqd pullarni, Markaziy bankning boshqa depozit tashkilotlari hamda boshqa sektorlar oldidagi majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Markaziy bankdan tashqaridagi naqd pullar – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar aks ettiriladi va bunda Markaziy bank kassasidagi milliy valyutadagi naqd pullar hisobga olinmaydi.

Boshqa depozit tashkilotlari oldidagi majburiyatlar – tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hamda majburiy zaxira hisobvaraqlaridagi mablag'larning qoldiqlari yig'indisini ifodalaydi.

Majburiy zaxiralar – tijorat banklarining Markaziy bankdagi majburiy zaxira hisobvaraqlaridagi mablag'lari aks ettiriladi.

Vakillik hisobvaraqlardagi mablag'lar – tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari aks ettiriladi.

Boshqa sektorlar oldidagi majburiyatlar – boshqa sektorlarning keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritiladigan Markaziy bankdagi depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari aks ettiriladi.

Boshqa depozit tashkilotlari oldidagi boshqa majburiyatlar – tijorat banklarining pul bazasi tarkibiga kiritilmaydigan Markaziy bankdagi depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari hamda tijorat banklari tasarrufidagi Markaziy bank obligatsiyalari aks ettiriladi.

Pul bazasi tarkibiga kiritilmaydigan depozitlar va qimmatli qog'ozlar – boshqa sektorlarning pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan Markaziy bankdagi depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari aks ettiriladi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan chiqarilgan hamda boshqa sektorlar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar ifodalanadi.

Kreditlar – Markaziy bank tomonidan boshqa sektorlardan jalb qilingan kredit mablag'lari aks ettiriladi.

Moliyaviy hosilaviy instrumentlar – forvard shartnomalari, shuningdek opsion va fyucherslar revalvatsiyasi natijasida hamda svoplar bo'yicha hisoblanmagan zararlar yoki kechiktirilgan daromadlar aks ettiriladi.

Aksiyalar va kapitaldagi ishtirokning boshqa shakllari – Markaziy bankning ustav va rezerv kapitali, devalvatsiya zaxirasi hamda taqsimlanmagan foydasini o'z ichiga oladi.

Boshqa bo'limlar, sof – tasniflanmagan aktivlar va passivlar orasidagi farq.

2.2-jadval. Boshqa depozit tashkilotlari (tijorat banklari) sharhi

Boshqa depozit tashkilotlari sharhi tijorat banklarining jamlanma buxgalteriya balansi hisobotlari asosida oylik ravishda shakllantiriladi. Boshqa depozit tashkilotlari sharhi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

Sof tashqi aktivlar – tijorat banklarining jami tashqi aktivlari (nerezidentlarga bo'lgan talablari) hamda jami tashqi majburiyatlari (nerezidentlar oldidagi majburiyatlari) orasidagi farqni ifodalaydi.

Nerezidentlarga bo'lgan talablar – tijorat banklari kassalaridagi naqd chet el valyutasi, nerezident banklarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek nerezidentlarga ajratilgan kreditlar, kiritilgan investitsiyalar hamda bo'nak (avans) to'lovlari aks ettiriladi.

Norezidentlar oldidagi majburiyatlar – tijorat banklari tomonidan norezidentlardan jalb qilingan depozitlar va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek subordinar qarzlarni ifodalaydi.

Markaziy bankka bo'lgan talablar – milliy valyutadagi naqd pullarni, zaxira depozitlari va qimmatli qog'ozlarni (aksiyalardan tashqari) hamda Markaziy bankka bo'lgan boshqa talablarni o'z ichiga oladi.

Milliy valyutadagi naqd pullar – tijorat banklari kassalaridagi milliy valyutadagi naqd pullarni anglatadi.

Zaxira depozitlari va qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) – tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik va majburiy zaxira hisobvaraqlaridagi, shuningdek pul bazasi tarkibiga kiritilmaydigan depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larni o'z ichiga oladi.

Markaziy bankka bo'lgan boshqa talablar – tijorat banklari tasarrufidagi pul bazasi tarkibiga kiritilmaydigan Markaziy bank obligatsiyalari aks ettiriladi.

Markaziy hukumatga bo'lgan sof talablar – tijorat banklarining Markaziy hukumatga bo'lgan talablari hamda Markaziy hukumat oldidagi majburiyatlari orasidagi farqni aks ettiradi.

Markaziy hukumatga bo'lgan talablar – tijorat banklari tomonidan Markaziy hukumatga ajratilgan kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek Markaziy hukumat tomonidan chiqarilgan hamda tijorat banklari tasarrufidagi qimmatli qog'ozlarni ifodalaydi.

Markaziy hukumat oldidagi majburiyatlar – Markaziy hukumatning tijorat banklaridagi talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda Markaziy hukumatdan jalb qilingan kreditlar, shuningdek ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Boshqa sektorlarga bo'lgan talablar – tijorat banklarining boshqa moliyaviy tashkilotlarga, mahalliy davlat tashkilotlariga, nomoliyaviy davlat tashkilotlariga hamda xususiy sektorga bo'lgan talablarni o'z ichiga oladi.

Boshqa moliyaviy tashkilotlarga bo'lgan talablar – tijorat banklar tomonidan boshqa moliyaviy tashkilotlarga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan chiqarilgan hamda tijorat banklari tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Mahalliy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – tijorat banklari tomonidan mahalliy davlat tashkilotlariga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – tijorat banklari tomonidan nomoliyaviy davlat tashkilotlariga ajratilgan kredit va lizinglar hamda ularga hisoblangan foizlar, kiritilgan investitsiyalar hamda amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlar, shuningdek nomoliyaviy davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan hamda tijorat banklar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Xususiy sektorga bo'lgan talablar – tijorat banklari tomonidan xususiy sektorga (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) ajratilgan kredit va lizinglar hamda ularga hisoblangan foizlar, kiritilgan investitsiyalar hamda amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlar, shuningdek xususiy sektor tomonidan chiqarilgan hamda tijorat banklar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Markaziy bank oldidagi majburiyatlar – tijorat banklaridagi Markaziy bankning vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar, shuningdek tijorat banklari tomonidan Markaziy bankdan jalb qilingan kreditlarni ifodalaydi.

Keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritiladigan talab qilib olinguncha depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning tijorat banklaridagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritiladigan boshqa depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritiladigan qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) – tijorat banklari tomonidan chiqarilgan hamda boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektor tasarrufidagi jamg'arma va muddatli depozit sertifikatlar hamda ularga hisoblangan foizlar ifodalanadi.

Keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan depozitlar – mahalliy davlat tashkilotlarining tijorat banklaridagi talab qilib olinguncha, jamg'arma hamda muddatli depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Keng ma'nodagi pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) – tijorat banklari tomonidan chiqarilgan hamda davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektor tasarrufidagi obligatsiyalar ifodalanadi.

Kreditlar – tijorat banklari tomonidan boshqa sektorlardan jalb qilingan kredit mablag'lari hamda ularga hisoblangan foizlari yig'indisini aks ettiradi.

Moliyaviy hosilaviy instrumentlar – forward shartnomalari, shuningdek opsiya va fyucherslar revalvatsiyasi natijasida hamda svoplar bo'yicha hisoblanmagan zararlar yoki kechiktirilgan daromadlar aks ettiriladi.

Sug'urta texnik zaxiralar – fuqarolarning Aksiyadorlik tijorat Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan nafaqa mablag'lari yig'indisini aks ettiradi.

Aksiyalar va kapitaldagi ishtirokning boshqa shakllari – tijorat banklarining ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali, devalvatsiya zaxirasi hamda taqsimlanmagan foydasini o'z ichiga oladi.

Boshqa bo'limlar, sof – tasniflanmagan aktivlar va passivlar orasidagi farq.

2.3-jadval. Depozit tashkilotlari (Bank tizimi) sharhi

Depozit tashkilotlari (Bank tizimi) sharhi “Markaziy bank sharhi” va “Boshqa depozit tashkilotlari sharhi” jadvallaridagi ma'lumotlarni konsolidatsiya (umumlashtirish) qilish asosida oylik ravishda shakllantiriladi. Konsolidatsiya (umumlashtirish) qilish Markaziy bank va tijorat banklari orasidagi o'zaro talablarni va majburiyatlarni chegirib tashlash hamda ularning iqtisodiyotning boshqa sektorlari va norezidentlar bilan operatsiyalarini jamlash orqali amalga oshiriladi. Depozit tashkilotlari sharhi quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

Sof tashqi aktivlar – depozit tashkilotlarining jami tashqi aktivlari (norezidentlarga bo'lgan talablari va monetar oltin) hamda jami tashqi majburiyatlari (norezidentlar oldidagi majburiyatlari) orasidagi farqni ifodalaydi.

Monetar oltin – xalqaro standartlarga mos keluvchi oltin.

Norezidentlarga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlarining kassalaridagi naqd chet el valyutasi, norezident banklarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlar, norezidentlarga ajratilgan kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, kiritilgan investitsiyalar hamda bo'nak (avans) to'lovlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, XVJdagi maxsus qarz olish huquqlari va zaxira pozitsiyasi aks ettiriladi.

Norezidentlar oldidagi majburiyatlar – depozit tashkilotlari tomonidan norezidentlardan jalb qilingan depozitlar va kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek subordinar qarzlar hamda XVJ tomonidan taqsimlab berilgan maxsus qarz olish huquqlarini ifodalaydi.

Ichki talablar – depozit tashkilotlarining Markaziy hukumatga bo'lgan sof talablari hamda boshqa sektorlarga bo'lgan talablari yig'indisini ifodalaydi.

Markaziy hukumatga bo'lgan sof talablar – depozit tashkilotlarining Markaziy hukumatga bo'lgan talablari hamda Markaziy hukumat oldidagi majburiyatlari orasidagi farqni aks ettiradi.

Markaziy hukumatga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlari tomonidan Markaziy hukumatga ajratilgan kreditlar hamda ularga hisoblangan foizlar, shuningdek Markaziy hukumat tomonidan chiqarilgan hamda depozit tashkilotlari tasarrufidagi qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga oladi.

Markaziy hukumat oldidagi majburiyatlar – Markaziy hukumatning depozit tashkilotlaridagi depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar va Markaziy hukumatdan jalb qilingan kreditlar, shuningdek ularga hisoblangan foizlar aks ettiriladi.

Boshqa sektorlarga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlarining boshqa moliyaviy tashkilotlarga, mahalliy davlat tashkilotlariga, nomoliyaviy davlat tashkilotlariga hamda xususiy sektorga bo'lgan talablarini o'z ichiga oladi.

Boshqa moliyaviy tashkilotlarga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlari tomonidan boshqa moliyaviy tashkilotlarga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, boshqa moliyaviy tashkilotlar tomonidan chiqarilgan hamda depozit tashkilotlar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Mahalliy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlari tomonidan mahalliy davlat tashkilotlariga ajratilgan kreditlar va ularga hisoblangan foizlar, amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Nomoliyaviy davlat tashkilotlariga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlari tomonidan nomoliyaviy davlat tashkilotlariga ajratilgan kredit va lizinglar hamda ularga hisoblangan foizlar, kiritilgan investitsiyalar hamda amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, shuningdek nomoliyaviy davlat tashkilotlari tomonidan chiqarilgan hamda depozit tashkilotlar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Xususiy sektorga bo'lgan talablar – depozit tashkilotlari tomonidan xususiy sektorga (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) ajratilgan kredit va lizinglar hamda ularga hisoblangan foizlar, kiritilgan investitsiyalar hamda amalga oshirilgan bo'nak (avans) to'lovlari, shuningdek xususiy sektor tomonidan chiqarilgan hamda depozit tashkilotlar tasarrufidagi qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy talablar aks ettiriladi.

Keng ma'nodagi pul massasi – muomaladagi (bank tizimidan tashqaridagi) naqd pullar, talab qilib olinguncha va boshqa depozitlar, shuningdek qimmatli qog'ozlarni (aksiyalardan tashqari) o'z ichiga oladi.

Muomaladagi (bank tizimidan tashqaridagi) naqd pullar – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan barcha naqd pullar bo'lib, bunda Markaziy bank hamda tijorat banklari kassalaridagi milliy valyutadagi naqd pullar hisobga olinmaydi.

Talab qilib olinguncha depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning depozit tashkilotlaridagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Boshqa depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning depozit tashkilotlaridagi jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni o'z ichiga oladi.

Qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) – depozit tashkilotlari tomonidan chiqarilgan hamda boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektor tasarrufidagi jamg'arma va muddatli depozit sertifikatlari hamda ularga hisoblangan foizlarni ifodalaydi.

Pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan depozitlar – mahalliy davlat tashkilotlarining tijorat banklaridagi talab qilib olinguncha, jamg'arma hamda muddatli depozit hisobvaraqlaridagi mablag'larni o'z ichiga oladi.

Pul massasi tarkibiga kiritilmaydigan qimmatli qog'ozlar (aksiyalardan tashqari) – depozit tashkilotlari tomonidan chiqarilgan hamda boshqa sektorlar egalik qiluvchi obligatsiyalarni ifodalaydi.

Kreditlar – depozit tashkilotlari tomonidan boshqa sektorlardan jalb qilingan kredit mablag'lari hamda ularga hisoblangan foizlarni aks ettiradi.

Moliyaviy hosilaviy instrumentlar – forward shartnomalari, shuningdek opsion va fyucherslar revalvatsiyasi natijasida hamda svoplar bo'yicha hisoblanmagan zararlar yoki kechiktirilgan daromadlar aks ettiriladi.

Sug'urta texnik zaxiralar – fuqarolarning Aksiyadorlik tijorat Xalq bankidagi shaxsiy jamg'arib boriladigan nafaqa mablag'lari yig'indisini aks ettiradi.

Aksiyalar va kapitaldagi ishtirokning boshqa shakllari – depozit tashkilotlarining ustav, qo'shilgan va rezerv kapitali, devalvatsiya zaxirasi hamda taqsimlanmagan foydasini o'z ichiga oladi.

Boshqa bo'limlar, sof – tasniflanmagan aktivlar va passivlar orasidagi farq.

2.4-jadval. Pul agregatlari

Pul agregatlari Markaziy bank buxgalteriya balansi hisoboti hamda tijorat banklari jamlanma buxgalteriya balansi hisobotlari asosida oylik ravishda shakllantiriladi. Pul agregatlari quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat.

Keng ma'nodagi pul massasi (M2) – milliy valyutadagi pul massasi hamda chet el valyutasidagi depozitlardan iborat.

Milliy valyutadagi pul massasi – tor ma'nodagi pul massasi (M1) hamda milliy valyutadagi boshqa depozitlarni o'z ichiga oladi.

Tor ma'nodagi pul massasi (M1) – muomaladagi naqd pullar va milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozitlarni ifodalaydi.

Muomaladagi naqd pullar (M0) – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan naqd pullar bo'lib, bunda Markaziy bank hamda tijorat banklari kassalaridagi milliy valyutadagi naqd pullar hisobga olinmaydi.

Milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) depozit tashkilotlaridagi milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarini o'z ichiga oladi.

Milliy valyutadagi boshqa depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) depozit tashkilotlaridagi milliy valyutada jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni ifodalaydi.

Chet el valyutasidagi depozitlar – boshqa moliyaviy tashkilotlar, davlat nomoliyaviy tashkilotlar hamda xususiy sektorning (boshqa nomoliyaviy tashkilotlar, uy ho'jaliklar va boshqalar) depozit tashkilotlaridagi chet el valyutasida talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lar hamda ularga hisoblangan foizlarni ifodalaydi.

III bo'lim. Markaziy bank pul-kredit siyosatining asosiy ko'rsatkichlari va instrumentlari

3.1-jadval. Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi

Asosiy foiz stavkasi– tijorat banklari uchun qarz olish foiz stavkasini hamda qarz oluvchilar uchun kredit xarajatlarini belgilab beruvchi foiz stavkasi.

Asosiy foiz stavkasi o'zgarishi banklararo pul bozoridagi foiz stavkalariga ta'sir ko'rsatadi.

3.2- jadvallar. Majburiy rezervlar normativlari

Majburiy rezervlar– tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqqa majburiy tartibda milliy valyuta va chet el valyutasida depozitga o'tkazilgan pul mablag'lari. Markaziy bank tijorat bankining rezerv shakllantiriladigan majburiyatlariga nisbatan foiz miqdorini o'rnatadi.

Majburiy rezervlar normativ miqdori rezerv shakllantiriladigan majburiyatlarning hisob-kitob davridagi o'rtacha miqdoriga majburiy rezervlar normativini ko'paytirish orqali hisoblanadi.

3.3- jadval. Majburiy rezervlar qoldig'i

Majburiy rezervlar qoldig'i – tijorat banklari tomonidan Markaziy bankda alohida ochilgan hisobvaraqqa milliy va chet el valyutasida o'tkazilgan majburiy rezervlarning ma'lum bir sana holatiga qoldiqlari.

3.4-jadval. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obligatsiyalar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalar bank tizimi likvidligini tartibga solish hamda pul-kredit siyosati foiz instrumentlari samaradorligini oshirish maqsadida tijorat banklari orasida joylashtiriladi. Ushbu obligatsiyalar "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki obligatsiyalarining chiqarilishi va muomalada bo'lishi tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 3080, 2018-yil 25oktabr) nizomga ko'ra bir yilgacha bo'lgan muddatlarda chiqariladi.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumot auksion o'tkaziladigan kundan kamida bir ish kuni oldin Markaziy bankning rasmiy sahifalarida e'lon qilinadi.

Markaziy bank obligatsiyalari – obligatsiya egasiga belgilangan tartibda daromad olish huquqini beruvchi Markaziy bank tomonidan elektron shaklda chiqariladigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar.

Kupon davri – obligatsiya egasiga foizli daromad to'lab beriladigan, Markaziy bank tomonidan belgilangan davr.

Savdo tizimi – obligatsiyalar bo'yicha elektron savdolari tashkillashtirish, obligatsiyalarni saqlash va ularga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, tuzilgan bitimlar bo'yicha kliring va hisob-kitoblarni amalga oshirishni ta'minlovchi valyuta birjasining avtomatlashtirilgan elektron tizimi.

Diler – Markaziy bank hamda valyuta birjasi bilan tuzilgan Bosh bitim asosida obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi tijorat banklari.

Auktsion savdolari – obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha Markaziy bank tomonidan tijorat banklari o'rtasida amalga oshiriladigan kimoshdi savdolari.

3.5-3.6-jadvallar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'tkazilgan depozit, valyutaviy svop hamda REPO auktsionlari natijalari

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan depozit auktsionlari "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 3079, 2018 yil 25 oktyabr), valyutaviy svop auktsionlari "O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 1839, 2008 yil 28 iyun), REPO auktsionlari "O'zbekiston Respublikasining Davlat qimmatli qog'ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 1829, 2008 yil 15 mart) nizomlarga asosan o'tkazilib boriladi.

Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan ushbu operatsiyalar tijorat banklariga likvidlik berish yoki jalb qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Auktsion o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumot auktsion o'tkaziladigan kundan kamida bir ish kuni oldin Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Depozit auktsioni – tijorat banklarining pul mablag'larini jalb qilish bo'yicha Markaziy bank tomonidan tijorat banklari o'rtasida amalga oshiriladigan kimoshdi savdolari.

REPO va valyutaviy svop auktsionlari – Markaziy bank tomonidan banklararo pul bozoridagi foiz stavkalarining asosiy stavka yoki foiz koridoridan chekinishi holatlarining oldini olish maqsadida tijorat banklari o'rtasida o'tkaziladigan kimoshdi savdolaridir.

Auktsion muddati – Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan auktsion orqali jalb qilinadigan depozitlarning saqlanishi belgilangan davri.

Jalb qilinadigan mablag'larning maksimal miqdori – depozit auktsionida tijorat banklaridan jalb qilinishi mumkin bo'lgan mablag'larning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan maksimal miqdori.

Taqdim etiladigan mablag'larning maksimal miqdori – valyutaviy svop hamda REPO auktsionlarida tijorat banklariga taqdim qilinishi mumkin bo'lgan mablag'larning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan maksimal miqdori.

Banklar tomonidan taklif etilgan mablag'lar miqdori – auktsionda tijorat banklari tomonidan taklif etilgan mablag'lar miqdori.

Banklar tomonidan taklif etilgan minimal foiz stavkasi – auktsionda tijorat banklari tomonidan taklif etilgan minimal foiz stavkasi.

Banklar tomonidan taklif etilgan maksimal foiz stavkasi – auktsionda tijorat banklari tomonidan taklif etilgan maksimal foiz stavkasi.

Chegirish stavkasi – auktsion natijalariga ko'ra tijorat banklarining qondiriladigan raqobatli arizalari bo'yicha taklif etilgan depozit auktsionlari uchun maksimal, REPO hamda valyutaviy svop auktsionlari uchun minimal foiz stavkalari.

O'rtacha tortilgan foiz stavkasi – auktsion yakunlari bo'yicha to'liq yoki qisman qondiriladigan raqobatli arizalarda ko'rsatilgan mablag'lar miqdori hamda foiz stavkalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Jalb qilingan mablag'lar miqdori – depozit auktsioni natijalari bo'yicha Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridan depozitga jalb qilingan mablag'larning jami miqdori.

Taqdim etilgan mablag'lar miqdori – REPO va valyutaviy svop auksionlari natijalari bo'yicha Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga taqdim etilgan mablag'larning jami miqdori.

Overnait depozit – pul bozoridagi foiz stavkalarining keskin tebranishining oldini olish hamda tijorat banklari likvidligini Markaziy bankka jalb qilish maqsadida Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan foiz korridorining quyi chegarasida o'tkaziladigan va muddati bir kundan iborat bo'lgan operatsiyalar.

3.7- jadval. Chet el valyutalarining so'mga nisbatan rasmiy almashuv kurslari

Chet el valyutalarining so'mga nisbatan rasmiy almashuv kurslari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-saytida (<http://www.cbu.uz>) har kuni joylashtiriladi. Almashuv kurslari valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik va boshqa hisobotlarni yuritish, shuningdek bojxona va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish maqsadida e'lon qilinadi.

AQSH dollarining so'mga nisbatan almashuv kursi o'rtacha tortilgan ko'rsatkich sifatida valyuta birjasida kunlik shakllangan kurslardan hamda ushbu kurslar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Boshqa valyutalarning almashuv kurslari AQSH dollarini asosiy valyuta sifatida qabul qilgan holda kross-kurs asosida hisoblanadi. Boshqa xorijiy davlatlar valyutalarining AQSH dollariga nisbatan kurslarining manbasi sifatida Thomson Reuters axborot tizimidan foydalaniladi.

IV bo'lim. Moliya bozori

4.1. Banklararo depozit operatsiyalari

4.1.1-jadval. Milliy valyutadagi banklararo depozitlar

Banklararo pul bozorida milliy valyutada depozitlarni joylashtirish "Banklararo pul bozorida elektron savdo platformasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami 3010, 2018 yil 12 may) muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur operatsiyalar Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek tijorat banklari tomonidan bankning likvidligini ta'minlash yoki pul mablag'larini joylashtirish orqali daromad olish maqsadida amalga oshiriladi.

Banklararo pul bozorida depozitlarning jalb qilinishi va joylashtirilishi yagona elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi.

Ushbu jadvalda tijorat banklari tomonidan banklararo pul bozorida joylashtirilgan mablag'lar umumiy miqdorining dinamikasi, ular bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari hamda davr oxiriga depozitlar qoldiqlari keltirilgan.

Banklararo depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hisobot davrida har bir jalb qilingan depozit summasini uning yillik hisobdagi foiz stavkasiga ko'paytirish natijalari yig'indisining jami jalb qilingan depozitlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{AV} = \frac{\sum_{t=1}^n (V_t * P_t)}{\sum_{t=1}^n (V_t)},$$

Bu erda:

P_{AV} – o'rtacha tortilgan foiz stavkasi;

V_t – t-depozit summasi;

P_t – t-depozit bo'yicha yillik hisobdagi foiz stavkasi.

4.1.2-jadval. Milliy valyutadagi banklararo repo bitimlari

Banklararo pul bozorida milliy valyutada repo bitimlari “O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bilan REPO bitimlarini tuzish va ijro etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (ro‘yxat raqami 1829, 2008-yil 18-iyun) muvofiq amalga oshiriladi.

Mazkur operatsiyalar Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosati maqsadlaridan kelib chiqqan holda, shuningdek tijorat banklari tomonidan bankning likvidligini ta‘minlash yoki pul mablag‘larini joylashtirish orqali daromad olish maqsadida amalga oshiriladi.

Banklararo pul bozorida repo bitimlarini tuzilishi yagona elektron savdo platformasi orqali amalga oshiriladi.

Ushbu jadvalda tijorat banklari tomonidan banklararo pul bozorida tuzilgan repo bitimlarining umumiy hajmi dinamikasi hamda ular bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari keltirilgan.

4.2. Valyuta bozori

4.2.1-jadval. O‘zbekiston respublika valyuta birjasida chet el valyutalari savdolari hajmi

O‘zbekiston respublika valyuta birjasida chet el valyutasini xarid qilish va sotish operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 iyuldagi 294-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Birjadan tashqari valyuta bozorida xorijiy valyutani xarid qilish va sotish operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston respublika valyuta birjasi savdolarida Markaziy bank tomonidan intervensiya operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

Ushbu jadvalda tijorat banklari hamda Markaziy bank tomonidan valyuta birjasida sotib olingan va sotilgan chet el valyutalari miqdori dinamikasi keltirilgan.

Shuningdek, jadvalda birja savdolarida shakllangan chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan o‘rtacha kurslari keltirilgan bo‘lib, ular savdolar o‘tkazilgan har bir kundagi kurslar yig‘indisining savdolar o‘tkazilgan kunlar soniga nisbati orqali aniqlangan.

4.2.2-4.2.3-jadvallar

Ushbu jadvallarda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlardan chet el valyutasini sotib olish va ularga chet el valyutasini sotish operatsiyalari soni, umumiy summasi dinamikasi hamda valyuta turlari kesimida keltirilgan.

V bo‘lim. Kredit tashkilotlari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

5.1. Umumiy ma‘lumot

5.1.1-jadval. Kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo‘linmalari soni

Ushbu jadvalda O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan kredit tashkilotlari, shu jumladan bank va nobank kredit tashkilotlari soni va tarkibiy tuzilmasi to‘g‘risida ma‘lumotlar ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi va “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunlariga asosan Markaziy bank kredit tashkilotlariga ularning faoliyat yuritishlari uchun litsenziya beradi.

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, mikromoliya tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

Bank (tijorat banki) – bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish bo‘yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuini amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs.

Bank filiali – bankning yuridik shaxs bo‘lmagan, bank nomidan bank faoliyatini amalga oshiruvchi va bank tomonidan o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida harakat qiluvchi alohida bo‘linmasidir.

Davlat ulushi mavjud banklar – ustav kapitalida davlat ulushi kamida 50 foizni tashkil etgan banklar.

Mikromoliya tashkiloti – mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Lombard –shaxsiy iste'molga mo'ljallangan ko'char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlarni berishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti – moliyaviy mablag'larni jalb qilish va ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar) – bank filiali binosidan tashqarida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi. Bank xizmatlari ofisi turli xil nomlanishi ("Mini-bank", "Chakana xizmatlar markazi", "Bank xizmatlari markazi" va boshqalar) mumkin.

24/7 shoxobchalari – jismoniy shaxslarga ularning milliy valyutadagi va xalqaro plastik kartalaridan naqd pul yechish, milliy valyutadagi plastik kartalarini naqd pulda to'ldirish, shuningdek turli to'lovlarni amalga oshirishlari bo'yicha uzluksiz (kunu-tun) xizmatlarni ko'rsatish uchun mo'ljallangan, bank filiali binosidan tashqarida joylashgan dasturiy texnik vositalar.

5.1.2-jadval. Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda davlat ulushi mavjud bo'lgan va davlat ulushi bo'lmagan banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, shu jumladan ularning aktivlari, kreditlari, depozitlari va kapitali hajmlari dinamikasi, shuningdek ushbu ko'rsatkichlarning chet el valyutasidagi qismining milliy valyutadagi ekvivalenti keltirilgan.

Aktivlar – kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, Markaziy bank va boshqa banklardagi mablag'lar, investitsiyalar, qimmatli qog'ozlar, kredit qo'yilmalari, lizing va faktoring operatsiyalari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar, hisoblangan foizsiz daromadlar, valyuta pozitsiyalari, bankning boshqa xususiy mulklari va boshqa aktivlar.

Kreditlar (kredit qo'yilmalari) – mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxona, tashkilot, muassasa, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga, Hukumatga, byudjet tashkilotlariga, boshqa tijorat banklariga, jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga kredit berish qoidalariga hamda kredit shartnomasiga muvofiq ajratilgan qisqa muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yil muddatgacha) va uzoq muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yildan ortiq muddatga) kreditlar, ular bilan amalga oshirilgan (Hukumat, byudjet tashkilotlari va jismoniy shaxslar bundan mustasno) lizing va faktoring operatsiyalari.

Depozitlar – hukumat va turli darajadagi byudjetlar qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha, byudjetdan tashqari fondlarning, mulkchilik shaklidan qat'i nazar korxona, tashkilot, muassasa, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning, jismoniy shaxslarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning va boshqa mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma va muddatli depozitlari, banklar tomonidan chiqarilgan jamg'arma va depozit sertifikatlari.

Kapital (xususiy kapital) ustav kapitalidan, qo'shimcha kapitaldan, zaxira kapitalidan va taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

5.1.3-jadval. Bank tizimi bo'yicha kapital yetarliligi ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda bank tizimi bo'yicha kapital yetarliligi ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan.

Banklar kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2693, 2015 yil 6 iyul) bilan tartibga solinadi.

Regulyativ kapital – bank faoliyatini tartibga solish va prudensial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali.

Regulyativ kapital I darajali kapital va II darajali kapitalning yig'indisidan iborat.

I darajali kapital I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapitalni o'z ichiga oladi.

I darajali asosiy kapital bank regulyativ kapitalining 60 foizidan kam bo'lmashligi va o'z ichiga quyidagilarni olishi zarur:

a) bankning to'liq to'langan oddiy aksiyalari yoki bank aksiyadorlik jamiyatidan boshqa shaklda tashkil etilganda oddiy aksiyaga tenglashtirilgan vositalar;

b) qo'shilgan kapital – oddiy aksiyalar birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) taqsimlanmagan foyda (zarar):

bank balansidagi avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan shakllangan kapital zaxiralar va boshqa zaxiralar (tekinga olingan mulklar va asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi bundan mustasno);

to'lanmagan dividend summasidan tashqari o'tgan yillardan qolgan taqsimlanmagan foyda;

o'tgan yillardagi qoplanmagan zararlar va joriy yil zararlar;

g) ozchilik ulush egalarining bank yig'ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari. Bu ulush sho'ba korxonalari hisobvaraqlari bank moliyaviy hisobotlarida birlashtirilganda va bank ulushi bunday korxonalar kapitalining 100 foizdan kam qismini tashkil qilganda vujudga keladi;

d) devalvatsiya zaxirasi. Bu zaxira sezilarli darajada milliy valyutaning qadrsizlanishida (devalvatsiya) bankning o'z majburiyatlarini qoplash uchun taqsimlanmagan foyda hisobidan ajratilgan mablag'lardan shakllanadi.

I darajali qo'shimcha kapital o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) to'liq to'langan nokumulyativ muddatsiz imtiyozli aksiyalar;

b) qo'shilgan kapital – imtiyozli aksiyalarning birinchi marta joylashtirilishida ularning nominal narxidan yuqori to'langan summa;

v) I darajali qo'shimcha kapitalga qo'shilish shartlariga javob beruvchi sho'ba korxonalari tomonidan chiqarilgan va uchinchi shaxslar ixtiyorida bo'lgan kapitalga tenglashtirilgan vositalar, shuningdek ozchilik ulush egalarining bank yig'ma balansiga birlashadigan korxonalaridagi ulushlari (oldingi qismning "g" bandiga kiritilganlar bundan mustasno).

II darajali kapital quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) joriy yildagi sof foyda, bankning oraliq moliyaviy hisoboti auditorlik tekshiruvidan o'tgan bo'lsa – tasdiqlangan moliyaviy natijalaridan ko'p bo'lmagan miqdorda, aks holda bank hisobotidagi sof foydaning 50 foizi;

b) chegirmalardan so'ng tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasining 1,25 foizidan yuqori bo'lmagan miqdordagi standart kreditlarga (aktivlar) yaratiladigan zaxiralar;

v) chegirmalardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmagan miqdorda aralash turdagi majburiyatlar (aksiyadorlik va qarz kapitali xususiyatlariga ega bo'lgan vositalar);

g) subordinar qarz – bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo'lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so'ng I darajali kapitalning uchdan bir qismidan oshmasligi kerak. II darajali kapital tarkibiga kiruvchi subordinar qarz quyidagi talablarga javob berishi lozim:

garov ta'minotiga ega bo'lmashligi;

bank tugatilayotganda depozitorlar va bankning boshqa kreditorlari talablari qondirilganidan so'ng ushbu majburiyatlar bo'yicha talablar qondirilishi;

boshlang'ich to'lov muddati 5 yildan keyin bo'lishi;

qarzdor bank yoki unga aloqador shaxslar tomonidan boshqa aktivlarga kafolat va ta'minot sifatida qo'yilmagan, shuningdek bank tugatilgan taqdirda hech qanday shartnoma bilan uning to'lash navbati (subordinatsiyasi) o'zgartirilmagan, ya'ni bank depozitorlari va kreditorlari talablariga tenglashtirilmagan bo'lishi;

muddatidan avval Markaziy bankning ruxsati bilan qaytarilishi.

d) aktivlarning boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasining 45 foizi miqdori.

Kapital yetarliligi ko'rsatkichi (regulyativ kapitalning monandlik koeffitsienti) regulyativ kapital summasining tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar umumiy summasiga nisbati orqali hisoblanadi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlarning umumiy summasi chegirmalar ajratilgan holda tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi balans va balansdan tashqari aktivlar yig'indisi sifatida aniqlanadi.

I darajali kapital yetarliligi ko'rsatkichi I darajali kapital summasining tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar umumiy summasiga nisbati orqali hisoblanadi.

5.1.4-jadval. Bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari

Mazkur jadval ma'lumotlari tijorat banklari tomonidan likvidlilik ko'rsatkichlariga qo'yilgan talablarning bajarilishi holatini ko'rsatadi.

Likvidlilik ko'rsatkichlariga qo'yilgan talablar "Tijorat banklarining likvidliliğini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (ro'yxat raqami 2709, 2015 yil 13 avgust) bilan tartibga solinadi.

Likvidli aktivlar– qiymati bozorda shakllanadigan, bozor qiymati bo'yicha qisqa muddat ichida ularni sotib olishga osonlik bilan xaridor topiladigan, doimiy ravishda ko'zda tutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlar.

Yuqori likvidli aktivlarga quyidagilar kiradi:

naqd pullar;

sof quyma oltin;

Hukumatning va Markaziy bankning qimmatli qog'ozlari;

tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek bu mamlakatlar hukumatlari va markaziy banklariga boshqa moliyaviy talablar;

bankning Markaziy bankda ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag'lar, bundan Markaziy bankdagi majburiy rezerv hisobvarag'idagi mablag'lar mustasno;

tavakkalchilik darajasi past bo'lgan mamlakatlardagi "Standard & Poor's", "Fitch Ratings" va "Moody's Investors Service" kompaniyalarining investitsion reyting darajasiga yoki Markaziy bank tomonidan tan olinadigan boshqa reyting kompaniyalarining ushbu reyting darajasiga teng bo'lgan reyting baholariga ega banklarga joylashtirilgan likvidli aktivlar.

Joriy likvidlilik ko'effitsienti joriyaktivlar (to'lov muddati 30 kungacha bo'lgan bankning likvidli aktivlari va qo'yilmalari, bundan muddati uzaytirilgan yoki qaytarish muddati o'tgan kreditlar mustasno) summasining joriy majburiyatlar (talab qilib olinguncha va ijro etish muddati 30 kungacha bo'lgan majburiyatlar) summasiga nisbati orqali aniqlanadi va u 30 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Likvidlilikni qoplash me'yori ko'effitsienti yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbati sifatida aniqlanadi.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori barqaror moliyalashtirishning mavjud summasining barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbati sifatida aniqlanadi va u 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim.

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

jami kapital;

amaldagi qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo'lgan bank majburiyatlari;

qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30 foizi;

qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa depozitlar va qarz mablag'lari summasining 30 foizi.

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilar kiradi:

qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan, muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (yer uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);

sud jarayonida bo'lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;

qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa aktivlar summasining 30 foizi, qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan yoki muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;

balansdan tashqari moddalarning 15 foizi.

Lahzali likvidlilik ko'effitsienti bank kassasidagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari hamda bankning Markaziy bankdagi hisobvaraqlaridagi mablag'lari (bundan Markaziy bankdagi majburiy rezerv

hisobvarag'idagi mablag'lar mustasno) summasining talab qilib olinguncha majburiyatlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi va u 10 foizdan kam bo'lmashligi lozim.

Talab qilib olinguncha majburiyatlar hisobvaraqlari ro'yxati yuqorida ko'rsatib o'tilgan Nizomning 3-ilovasida keltirilgan.

5.1.5-jadval. Bank tizimi daromad va xarajatlari

Mazkur jadvalda bank tizimi daromadlari va xarajatlari dinamikasi keltirilgan.

Foizli daromadlar – pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun olingan daromadlar bo'lib, ularning tarkibiga Markaziy bank va boshqa banklardagi hisobvaraqlar, qimmatli qog'ozlar va ularga qilingan investitsiyalar, kreditlar va lizing operatsiyalari bo'yicha va boshqa foizli daromadlar kiradi.

Foizli daromadlar har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud kreditning boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summolari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi.

Foizli xarajatlar – pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun xarajatlar bo'lib, ularning tarkibiga jalb qilingan depozitlar, Markaziy bank va boshqa banklarning hisobvaraqlari, olingan kreditlar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari, bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha va boshqa foizli xarajatlar kiradi.

Foizli xarajatlar har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog'ozlari yoxud qarz mablag'larining boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summolari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi.

Foizli marja – foizli daromadlar va foizli xarajatlar o'rtasidagi farq.

Foizsiz daromadlar – bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar, chet el valyutasidagi foyda, tijorat operatsiyalaridan olingan foyda, investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar hamda boshqa foizsiz daromadlar.

Foizsiz xarajatlar – bank tomonidan to'langan xizmat va vositachilik xarajatlari, chet el valyutasida ko'rilgan zararlar, tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar, investitsiyalardan ko'rilgan zararlar va boshqa foizsiz xarajatlar.

Operatsion xarajatlar – bank operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar bo'lib, ularning tarkibiga xodimlarning ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar, ijara va ta'minot xarajatlari, transport va xizmat safari xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, reprezentatsiya va xayriya xarajatlari, eskirish xarajatlari, sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni va foyda solig'ini baholash hamda boshqa operatsion xarajatlar kiradi.

Foizsiz daromad (zarar) – foizsiz daromadlar bilan foizsiz va operatsion xarajatlar o'rtasidagi farq.

Kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash – kredit va lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash summasi.

Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash – boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash summasi.

Soliq to'langunga qadar sof foyda (zarar) – hisobot davrida bank moliyaviy faoliyatining natijalari bo'yicha soliq to'langunga qadar olingan sof foyda (zarar) summasi.

Foyda solig'ini to'lash xarajatlari – olingan foydaga hisoblangan soliqlar bo'yicha bank xarajatlari.

Foyda bo'yicha tuzatishlar – buxgalteriya tamoyillariga asosan bank faoliyatining moliyaviy natijalari bo'yicha boshqa har qanday tuzatishlar.

Sof foyda (zarar) – foyda solig'i to'langandan va foyda bo'yicha tuzatishlar amalga oshirilgandan so'ng moliyaviy faoliyatining natijalari bo'yicha olingan sof foyda (zarar).

5.1.6-jadval. Bank tizimi daromadlilik ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda bank tizimi faoliyatining daromadlilik ko'rsatkichlari dinamikasi keltirilgan bo'lib, shuningdek aktivlar va kapital daromadlilik kabi koeffitsientlar aks ettirilgan.

Jadval ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.5-jadvalga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.7-jadval. Bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda bank tizimi moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, shu jumladan bank kapitali yetarliligi, aktivlar sifati, aktiv va kapital daromadlilik, likvidlilik va boshqa bir qator ko'rsatkichlar keltirilgan.

Regulyativ kapital – bank faoliyatini tartibga solish va prudensial normativlar hisob-kitobini amalga oshirish maqsadida hisob-kitob qilish yo'li bilan aniqlanadigan bank kapitali.

I darajali kapital – chegirmalarni hisobga olgan holdagi I darajali asosiy kapital va I darajali qo'shimcha kapital yig'indisi.

Tavakkalchilikni hisobga olgan holdagi aktivlar summasi – aktivlar balans summasini unga tegishli tavakkalchilik miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadigan aktivlar yig'indisi.

Jami kreditlar va mikroqarzlar – kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar, bankning to'lanmagan akseptlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari va aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar summasi.

Muammoli kreditlar – “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar.

Zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlar – muammoli kreditlar summasidan ular bo'yicha yaratilgan zaxiralar summasi chegirilgan kreditlar.

Aktivlarning umumiy summasi (davr uchun o'rtacha) – hisobot davri oylari oxiridagi aktivlar miqdorining o'rtacha arifmetik summasi.

Jami kapital (davr uchun o'rtacha) – hisobot davri oylari oxiridagi kapital miqdorining o'rtacha arifmetik summasi.

Qisqa muddatli majburiyatlar – bankning 1 yil muddatgacha bo'lgan majburiyatlari.

Sof ochiq valyuta pozitsiyasi – bankning chet el valyutasida ifodalangan talablari summasining chet el valyutasidagi majburiyatlari summasi o'rtasidagi farqi.

Yirik tavakkalchilik hajmi – bank I darajali kapitalining 10 foizidan oshadigan tavakkalchiliklar summasi.

Jadvalning qolgan ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.2 va 5.1.4-5.1.5-jadvallarga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.8-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari

Mazkur jadvalda tijorat banklarining muammoli kreditlari dinamikasi jami banklar, shu jumladan davlat ulushi mavjud banklar va davlat ulushi bo'lmagan banklar kesimida keltirilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.7-jadvalga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.9-jadval. Bank tizimining taqqoslama ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda tijorat banklari aktivlari va majburiyatlari bo'yicha taqqoslama ko'rsatkichlar dinamikasi jami banklar, shu jumladan davlat ulushi mavjud banklar va davlat ulushi bo'lmagan banklar kesimida keltirilgan.

Majburiyatlar – talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma va muddatli depozitlar, plastik kartalardagi mablag'lar, Markaziy bank va boshqa banklarning hisobvaraqlari, olingan kreditlar va lizing, Hukumatga tegishli daromadlar va boshqa tushumlar, to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar va soliqlar, boshqaruv (menejer) cheklari va bankning to'lanmagan akseptlari, REPO bitimlari bo'yicha sotilgan qimmatli qog'ozlar, bank tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va boshqa majburiyatlar.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.2-jadvalga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.10-jadval. Tijorat banklari jamlanma balansi

Mazkur jadvalda tijorat banklari jamlanma buxgalteriya balansi, uning tarkibi hamda ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Aktivlar – 5.1.2-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari – banklar va ularning filiallari kassalarida mavjud bo'lgan naqd pul, banknot, tanga va boshqa to'lov hujjatlari.

Markaziy bankdagi mablag'lar – banklarning banklararo hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Markaziy bankka joylashtirgan bo'sh pul mablag'lari, Markaziy bankdagi majburiy rezerv hisobvarag'iga o'tkazilgan mablag'lar va boshqa depozitlar.

Boshqa banklardagi mablag'lar - rezidentlar – banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan banklarga joylashtirilgan mablag'lar.

Boshqa banklardagi mablag'lar - norezidentlar – banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida faoliyat yuritayotgan banklarga joylashtirilgan mablag'lar.

Investitsiyalar – 1.5-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Qimmatli qog'ozlar – davlat va boshqa korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlari nominal qoldig'i yoki banklarning tijorat faoliyati bilan bog'liq holda sotib olingan depozit sertifikatlari.

Kredit qo'yimalari – 5.1.2-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Asosiy vositalar – bu moddiy aktivlar bo'lib, bank faoliyatida bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma'muriy maqsadlarda ulardan foylaniladi. Asosiy vositalarga bino, inshootlar, uskuna va asboblari, kompyuterlar, mebel, hisoblash texnikalari, transport vositalari va shu kabilar kiradi.

Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar – aktivlar bo'yicha hisoblangan (shuningdek, mohiyati bo'yicha kreditlar bo'lgan boshqa operatsiyalar bo'yicha hisoblangan), lekin hali olinmagan foizlar.

Bankning boshqa xususiy mulklari – bank faoliyati bilan bog'liq maqsadlarda ishlatiladigan bankka tegishli bo'lgan ko'chmas mulklar va boshqa xususiy mulklar yoki kredit hisob-kitoblari va boshqa sabablar tufayli bank tomonidan o'zlashtirilgan mulklar.

Boshqa aktivlar – yuqoridagi tasniflarga mos tushmaydigan aktivlar.

Majburiyatlar – 5.1.9-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Depozitlar – 5.1.2-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Markaziy bankning hisobvaraqlari – Markaziy bankning tijorat banklarida ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari.

Boshqa banklarning mablag'lari - rezidentlar – rezident banklarning O'zbekiston Respublikasidagi banklarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari.

Boshqa banklarning mablag'lari - norezidentlar – norezident banklarning O'zbekiston Respublikasidagi banklarda ochilgan vakillik va depozit hisobvaraqlaridagi mablag'lari.

Olingan kreditlar va lizing – Markaziy bank va boshqa banklardan, Hukumatdan, Moliya vazirligi huzuridagi va byudjetdan tashqari jamg'armalardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan va boshqa kreditorlardan olingan qisqa muddatli (olingan sanasidan boshlab 1 yil muddatgacha) va uzoq muddatli (olingan sanasidan boshlab 1 yildan ortiq muddatga) kreditlar, boshqa banklar va lizing beruvchilar oldidagi lizing bo'yicha majburiyatlar.

Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar – banklar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar.

To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar – bank majburiyatlari bo'yicha hisoblangan, lekin hali to'lanmagan foizlar.

Boshqa majburiyatlar – yuqoridagi tasniflarga mos tushmaydigan majburiyatlar.

Ustav kapitali ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi.

Qo'shimcha kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chet el valyutasida ifodalangan ustav kapitalini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo'ladigan inflyasiya zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda foydaning jamg'arilayotganligini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo'shilishi mumkin. Shuningdek, 5.1.4-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.1.11-jadval. Tijorat banklari faoliyatining aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan alohida ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda aktivlar hajmi bo'yicha guruhlashtirilgan holda banklar faoliyatining alohida ko'rsatkichlari keltirilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.2, 5.1.4 va 5.1.5-jadvallarga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.12-jadval. Tijorat banklarining kapital miqdori bo'yicha guruhlanishi

Mazkur jadvalda banklarning jami hamda ustav kapitaliga oid ma'lumotlarning ularning miqdori bo'yicha guruhlariga ajratilgan holdagi dinamikasi ko'rsatilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.2 va 5.1.10-jadvallarga oid metodologik sharhlarga qarang.

5.1.13-jadval. Mikromoliya tashkilotlari jamlanma balansi

Mazkur jadvalda mikromoliya tashkilotlarining buxgalteriya jamlanma balansi, uning tarkibi hamda ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Aktivlar – kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari, banklardagi mablag'lar, kreditlar va mikrolizing, asosiy vositalar, aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar va boshqa aktivlar.

Kassadagi naqd pullar – kassadagi banknot va tangalar ko'rinishidagi naqd pul mablag'lari.

Banklardagi mablag'lar – banklarga qo'yilgan depozitlar va boshqa mablag'lar.

Kreditlar va mikrolizing – jismoniy shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yil muddatgacha) va uzoq muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yildan ortiq muddatga) mikroqarzlar, yuridik shaxslarga berilgan qisqa muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yil muddatgacha) va uzoq muddatli (berilgan sanadan boshlab 1 yildan ortiq muddatga) mikrokreditlar, shuningdek mikrolizing, faktoring operatsiyalari va boshqalar.

Asosiy vositalar – bu moddiy aktivlar bo'lib, faoliyat davomidagi xizmatlar ko'rsatish jarayonida, ijaraga berish uchun yoki ma'muriy maqsadlarda ulardan foylaniladi. Asosiy vositalarga bino, inshootlar, uskuna va asboblari, kompyuterlar, mebel, hisoblash texnikalari, transport vositalari va shu kabilar kiradi.

Hisoblangan foizlar – aktivlar bo'yicha hisoblangan (shuningdek, mohiyati bo'yicha kreditlar (mikroqarz, mikrokredit, mikrolizing) bo'lgan boshqa operatsiyalar bo'yicha hisoblangan), lekin hali olinmagan foizlar.

Boshqa aktivlar – yuqoridagi tasniflarga mos tushmaydigan aktivlar.

Majburiyatlar – jalb qilingan qarz mablag'lari, olingan kreditlar va lizing, to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar va soliqlar hamda boshqa majburiyatlar.

Olingan kreditlar va lizing – banklardan, davlatning maqsadli jamg'armalaridan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan, nodavlat notijorat tashkilotlardan, xalqaro moliyaviy institutlardan, chet ellik investorlardan va boshqa kreditorlardan olingan qisqa muddatli (olingan sanasidan boshlab 1 yil muddatgacha) va uzoq muddatli (olingan sanasidan boshlab 1 yildan ortiq muddatga) kreditlar, banklar va boshqa lizing beruvchilar oldidagi lizing bo'yicha majburiyatlar.

To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar – ta'sisчилardan va boshqa shaxslardan jalb qilingan qarz mablag'lari, olingan kreditlar, lizing va boshqa majburiyatlar bo'yicha hisoblangan, lekin hali to'lanmagan foizlar.

To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliqlar – hisoblangan foyda soliqlari va boshqa soliqlar, to'lash uchun ushlab qolingani soliqlar, muddati kechiktirilgan soliqlar, hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov va jamg'armalar bilan bo'ladigan hisob-kitoblari.

Boshqa majburiyatlar – yuqoridagi tasniflarga mos tushmaydigan majburiyatlar.

Kapital ustav kapitalidan, zaxira kapitalidan, taqsimlanmagan foydadan va o'zlashtirilgan grant mablag'laridan tarkib topadi.

Ustav kapitali ta'sis hujjatlarida belgilangan hissalarining (pulda ifodalangan holdagi) yig'indisini aks ettiradi.

Zaxira kapitali – umumiy maqsadlar uchun taqsimlanmagan foyda hisobidan ajratilgan mablag'lar, ta'sisчилardan tekinga olingan mulklar qiymati, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bozor qiymatining sezilarli o'sishi natijasida boshlang'ich qiymatiga nisbatan qiymatining oshgan miqdori.

Taqsimlanmagan foyda – o'tgan moliyaviy yillardagi faoliyat davomida olingan taqsimlanmagan foyda (zarar), hisobot yili davomida moliyaviy faoliyat natijasida olingan sof foyda (zarar)lar hamda ushbu davr davomida e'lon qilingan dividendlar summasi.

5.1.14-jadval. Mikromoliya tashkilotlari faoliyatining aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan alohida ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda aktivlar hajmi bo'yicha guruhlashtirilgan holda mikromoliya tashkilotlari faoliyatining alohida ko'rsatkichlari keltirilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.13-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.1.15-jadval. Mikromoliya tashkilotlarining kapital miqdori bo'yicha guruhlanishi

Mazkur jadvalda mikromoliya tashkilotlarining jami hamda ustav kapitaliga oid ma'lumotlarning ularning miqdori bo'yicha guruhlariga ajratilgan holdagi dinamikasi ko'rsatilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.13-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.1.16-jadval. Lombardlar jamlanma balansi

Mazkur jadvalda lombardlarning buxgalteriya jamlanma balansi, uning tarkibi hamda ko'rsatkichlari dinamikasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.13-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.1.17-jadval. Lombardlar faoliyatining aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan alohida ko'rsatkichlari

Mazkur jadvalda aktivlar hajmi bo'yicha guruhlashtirilgan holda lombardlar faoliyatining alohida ko'rsatkichlari keltirilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.13-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.1.18-jadval. Lombardlarning kapital miqdori bo'yicha guruhlanishi

Mazkur jadvalda lombardlarning jami hamda ustav kapitaliga oid ma'lumotlarning ularning miqdori bo'yicha guruhlariga ajratilgan holdagi dinamikasi ko'rsatilgan.

Jadvalning ko'rsatkichlari bo'yicha 5.1.13-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

5.2. Jalb qilingan mablag'lar

5.2.1-5.2.7-jadvallar

Mazkur jadvallarda tijorat banklari tomonidan jismoniy hamda yuridik shaxslardan milliy valyutada jalb qilingan depozitlar hajmi va jami depozitlar qoldig'i dinamikasi ularning turlari bo'yicha ko'rsatilgan.

Jadvallar ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

Depozitlar – 5.1.2-jadvalga oid metodologik sharhga qarang.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar – talab qilinishi bilanoq beriladigan depozitlar. Bank plastik kartalaridagi mablag'lar (elektron plastik kartalaridagi muddatli va jamg'arma depozitlar bundan mustasno) talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hisoblanadi.

Jamg'arma depozitlar – bank depoziti shartnomasida belgilangan tartibda dastlabki depozit summasiga qo'shimcha mablag'lar kiritib borish huquqi bilan muayyan shartlar asosida jamg'ariladigan va

ma'lum maqsadlarga yo'naltiriladigan depozitlar. Jamg'arma depozitlar maqsadli, yutuqli, shartli va boshqa shartlar belgilangan ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Muddatli depozitlar – bank depoziti shartnomasida belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish sharti bilan jalb qilingan depozitlar.

5.2.8-5.2.9-jadvallar

Ushbu jadvallarda tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan milliy va chet el valyutasida jalb qilingan depozitlar bo'yicha yillik hisobdagi o'rtacha tortilgan foiz stavkalari ko'rsatilgan.

Depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hisobot davrida har bir jalb qilingan depozit summasini uning yillik hisobdagi foiz stavkasiga ko'paytirish natijalari yig'indisining jami jalb qilingan depozitlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{AV} = \frac{\sum_{t=1}^n (V_t * P_t)}{\sum_{t=1}^n (V_t)},$$

Bu yerda:

P_{AV} – o'rtacha tortilgan foiz stavkasi;

V_t – t-depozit shartnomasi bo'yicha jalb qilingan depozit summasi;

P_t – t-depozit shartnomasida o'rnatilgan yillik hisobdagi foiz stavkasi.

5.3. Ajratilgan kreditlar

5.3.1-5.3.7-jadvallar

Mazkur jadvallarda tijorat banklari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga milliy va chet el valyutasida ajratilgan kreditlarning umumiy hajmi va kreditlarning qoldiqlari dinamikasi ularning muddatlari, tarmoqlar va maqsadlar bo'yicha ko'rsatilgan.

Jadvallar ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

5.3.8-jadval. Iqtisodiyotga kredit qo'yilmalari qoldig'i

Mazkur jadval ma'lumotlari XVJning "Pul-kredit va moliyaviy statistikani shakllantirish qo'llanmasi"da belgilangan metodologiya asosida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining jamlanma buxgalteriya balansi hisobotlaridan foydalangan holda oylik ravishda shakllantiriladi.

Jadval ma'lumotlari tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga, xususan, boshqa moliyaviy tashkilotlarga, mahalliy davlat tashkilotlariga, nomoliyaviy davlat tashkilotlariga hamda xususiy sektorga ajratilgan kreditlar va boshqa moliyaviy talablarni aks ettiradi. Bunda, ma'lumotlar yuridik va jismoniy shaxslarga hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarga milliy va chet el valyutasida ajratilgan kreditlar bo'yicha ko'rsatilgan.

5.3.9-5.3.10-jadvallar

Ushbu jadvallarda tijorat banklari tomonidan milliy va chet el valyutasida ajratilgan kreditlar bo'yicha yillik hisobdagi o'rtacha tortilgan foiz stavkalari ko'rsatilgan.

Kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi hisobot davrida har bir ajratilgan kredit summasini uning yillik hisobdagi foiz stavkasiga ko'paytirish natijalari yig'indisining jami ajratilgan kreditlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$P_{AV} = \frac{\sum_{t=1}^n (V_t * P_t)}{\sum_{t=1}^n (V_t)},$$

Bu yerda:

P_{AV} – o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi;

V_t – t-kredit shartnomasi bo‘yicha ajratilgan kredit summasi;

P_t – t-kredit shartnomasida o‘rnatilgan yillik hisobdagi foiz stavkasi.

5.3.11-5.3.13-jadvallar

Mazkur jadvallarda kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlarning soni va summasi dinamikasi qarz oluvchilar, asosiy yo‘nalishlar va tarmoqlar bo‘yicha ko‘rsatilgan.

Jadvallar ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

5.3.14-jadval. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo‘yicha ajratilgan kreditlar

Mazkur jadvalda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari bo‘yicha ajratilgan kreditlar soni va summasi dinamikasi yo‘nalishlar kesimida ko‘rsatilgan.

Jadval ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

5.3.15-jadval. Tadbirkorlik va xo‘jalik yurituvchi subyektlariga davlat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kreditlar

Mazkur jadvalda tadbirkorlik va xo‘jalik yurituvchi subyektlariga tijorat banklari tomonidan davlat kafolati ostida jalb qilingan xorijiy kredit liniyalari hisobidan ajratilgan kreditlar jami summasi ko‘rsatilgan.

Jadval ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

5.3.16-jadval. Aholiga ajratilgan ipoteka kreditlari

Mazkur jadvalda tijorat banklari tomonidan aholiga ajratilgan ipoteka kreditlarining soni va summasi dinamikasi ko‘rsatilgan.

Jadval ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

5.3.17-jadval. Aholiga milliy valyutada ajratilgan kreditlar

Mazkur jadvalda tijorat banklari tomonidan aholiga ajratilgan milliy valyutada ajratilgan kreditlarining umumiy hajmi dinamikasi ularning turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan.

Jadval ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan hisobotlar asosida tayyorlangan.

VI bo‘lim. To‘lov tizimiga oid asosiy ko‘rsatkichlar

6.1-jadval. Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblari

Ushbu jadvalda Markaziy bankning Banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarga doir ma‘lumotlar aks ettirilgan bo‘lib, unda to‘lov hujjatlari turlari bo‘yicha tranzaksiyalar soni va summasining dinamikasi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida tijorat bankining boshqa tijorat banklari va Markaziy bank bilan bo‘ladigan hisob-kitoblari ularning Markaziy bank To‘lov markazida ochilgan vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, tijorat banklari milliy valyutada faqatgina Markaziy bankda vakillik hisobvarag‘i ochishlari mumkin.

Markaziy bankning Banklararo to'lov tizimi mazkur vakillik hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan.

6.2-jadval. Markaziy bankning hisob-kitob kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar

Mazkur jadvalda Markaziy bankning hisob-kitob kliring tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va summasining dinamikasi ko'rsatilgan.

Markaziy bankning hisob-kitob kliring tizimi jismoniy shaxslarning tizimga ulangan tashkilot va idoralar foydasiga o'tkaziladigan to'lovlarini real vaqt rejimida netting tamoyili asosida amalga oshirishga xizmat qiluvchi chakana to'lov tizimidir.

6.3-jadval. Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar

Mazkur jadvalda Markaziy bankning Tezkor to'lovlar tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar soni va summasining dinamikasi ko'rsatilgan.

Tezkor to'lovlar tizimi orqali banklararo hisob-kitoblar uzluksiz (dam olish kunlarisiz) tunu-kun 24/7 rejimida onlayn tarzda amalga oshiriladi.

6.4-jadval. Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar soni hamda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi

Mazkur jadvalda milliy va chet el valyutasida emissiya qilingan bank plastik kartalari, ularga xizmat ko'rsatuvchi o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni, shuningdek to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi dinamikasi ko'rsatilgan.

6.5-jadval. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni

Mazkur jadvalda masofaviy bank xizmatlaridan (internet-banking va mobil-banking xizmat turlari yordamida bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini boshqarish, USSD-so'rov yordamida bank plastik kartalaridagi mablag'larni boshqarish, sms-xabarnoma yordamida hisobvaraqdagi pul mablag'lari harakati haqida ma'lumot olish) foydalanuvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan.

6.6-jadval. To'lov tizimlari operatorlarining reestri

Mazkur jadvalda Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tizimlari operatorlari reestri keltirilgan.

To'lov tizimi operatori – O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov tizimining ishlashini ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

6.7-jadval. To'lov tashkilotlarining reestri

Mazkur jadvalda Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo'lgan to'lov tashkilotlari reestri keltirilgan.

To'lov tashkiloti – bank hisoblanmaydigan, to'lov xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan yuridik shaxs.

6.8-jadval. Elektron pullar tizimlari reestri

Mazkur jadvalda Markaziy bank tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo'lgan to'lov elektron pullar tizimlari operatorlari va emitentlari reestri keltirilgan.

Elektron pullar – elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari.

Elektron pullar tizimining operatori – tegishli litsenziyaga ega bo'lgan va elektron pullar tizimining ishlashini ta'minlaydigan bank yoki boshqa yuridik shaxs.

Markaziy bank va banklar **elektron pullarning emitentidir**.